

NEMIS TILINI O'RGATISHDA INTERAKTIV METODLARNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI

Buxoro tumani Politeknikumi
Nemis tili o'qituvchisi
Qiyomova Mohinur G'ulomjon qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida nemis tilini o'qitish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanishning ahamiyati va ularning ta'lim samaradorligidagi o'rni, ushbu metodlar asosida ta'lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, o'quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik hamda ijodiy fikrlashini yanada rivojlantirish, ularni faol tinglovchida faol ishtirokchiga aylantirish, o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Interaktiv metodlar, innovatsion texnologiya, innovatsiya, ta'lim, metod, shaxs, salohiyat, kreativlik, tashabbuskor, kasbiy faoliyat, kompetentlik, faollik, mahorat.*

Bugungi kunda ta'lim sohasi shiddatli rivojlanib borayapti. Ta'limning globallashuvi jarayonida xorijiy tillarni, xususan nemis tilini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Barchamizga ma'lumki, nemis tili nafaqat Yevropa davlatlarining barcha sohalarida, texnologiya, ta'lim hamda iqtisodiy sohalarida yetakchi tillardan biri hisoblanadi. Demak xulosa qilish mumkinki, nemis tilini samarali o'qitish bugungi kunning dolzarb masalasidan biri bo'lib qolmoqda. Xorijiy tillarni o'rgatishda an'anaviy o'qitish usullari o'quvchilar uchun qiziqarsiz hamda natijadorligi past bo'lganligi sababli, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, yangicha yondashuvlar va innovatsion metodlardan foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda.

Interaktiv metodlar nemis tilini o'qitishda muhim vosita sifatida alohida o'rin tutadi. Ushbu metodlar dars jarayonlarini qiziqarli tarzda tashkil etish, o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil va kreativ fikrlashini rivojlantirish hamda kommunikativ qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning faolligi oshadi, demak, ular beixtiyor kreativ, erkin faoliyatning markazidagi ishtirokchiga aylanadi va til o'rganish samaradorligi oshadi.

Nemis tilini o'rgatishda interaktiv metodlardan foydalanish ta'limiy jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanib, faoli rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Interaktiv metodlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro faol hamkorlikka asoslangan ta'lim usullari sifatida qarash maqsadli. Ushbu metodlar dars jarayonida o'quvchilarning faolligini ta'minlab, ularni mustaqil fikrlashga, erkin muloqot qilishga va til materiallarini amaliy qo'llashga undaydi.

Nemis tilini o'rgatishda pedagoglarga tavsiya sifatida ham aytish mumkin, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan metodlarga tayangan darslar ayniqsa

samarali hisoblanadi. Masalan, juft-juft va guruhli ishlash, munozara (debat), disput metodlari, “aqliy hujum”, klaster, rolli o‘yinlar ta’lim oluvchilarning mustaqil nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar orqali ta’lim oluvchilar kundalik hayotga oid har xil vaziyatlarda nemis tilida fikr bildirish, savol-javob qilish va erkim muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Dasturiy ta’lim vositalari, axborot-kommunikativ vositalar va texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan interaktiv metodlar nemis tilini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Multimedia, videoroliklar, taqdimotlar, interaktiv doskalar yordamida tashkil etilgan ta’limiy faoliyatlar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda o‘rganilayotgan ma’lumotni yanada aniq va tushunarli shuningdek, o‘zlashtirilish darajasini oshiradi. Turli xildagi audio va videolar asosida tayyorlangan ma’lumotlar yordamida to‘g‘ri talaffuzni rivojlantirish hamda lug‘at boyligini kengaytirish mumkin.

Interaktiv metodlarning yana bir muhim jihati shundaki, o‘quvchilar faol ishtirokchi sifatida mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunday metodlarda o‘quvchilar ma’lumotlarni osongina o‘zlashtiradi, izlanadi, tahlil qiladi, va o‘z fikrini asoslab berishga, hamkorlik qilishga, tashabbus bildirishga o‘rganadi. Natijada ular nemis tilini faqat ta’limiy faoliyat, ya’ni, dars davomida emas, balki darsdan tashqari vaqtlarda ham faol o‘rganishga intiladilar.

Interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, va qulaylashtiradi. Nemis tilini o‘qitishda innovatsion va interaktiv metodlardan foydalanish bugungi kunning talabi va zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘quvchilarning faolligini oshiruvchi ushbu metodlar, ularning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, nazariy olingan bilimlarni amaliy jihatdan qo‘llash imkonini yaratadi. Ushbu innovatsion yondashuvlar asosida erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va nemis tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlanadi.

Bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotga tadqiqotlar, o‘rganinshlar, tajribalar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv metodlar yordamida tashkil etilgan har qanday ta’limiy faoliyatlar an’anaviy faoliyatlarga nisbatan yuqori samaraga ega bo‘lib, ta’lim oluvchilarning tinglab tushunish, tinglab to‘g‘ri talaffuz qilish, erkin nutq kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, bu metodlar o‘qituvchining pedagogik kasbiy mahoratini to‘liq namoyon etish, ta’lim jarayonini innovatsion tarzda tashkil etish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, nemis tilini o‘qitishda dasturiy ta’lim vositalari, innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlarni o‘rinli va maqsadli qo‘llash ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh va bugunning talabiga javob beradigan zamonaviy bilimga ega bo‘lgan, salohiyatli, yuqori kompetentli mutaxassis kadrlarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K.V.Arangel'skaya. Ravnosnachnye sinonimy nemetskogo yazyka. – Uchyonnye zapiski/ Mosk. gos. ped. in-tut. in. yaz. im. M. Toreza, 1958, t. 16.
2. Yu. D. Apresyan. Problema sinonima. Voprosy yazykoznaniya.
3. L.R. Zinder, T.V. Stroeve. Posobie po teoreticheskoy grammatike i leksikologii nemetskogo yazyka. M., 1962
4. Ikkinchi chet tilini o'qitish kontseptsiyasi (ingliz tiliga asoslangan nemis tili). - Tver, sarlavha, 2001 yil.
5. E.A. Migranova, Sh.X. Poziova Kasbiy pedagogik f'aoiiyatga kirish / O'quv qo'llamna. - Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2018 y. - 200 bet
6. O'.J. To'ldoshev. Umumiy pedagogika. – T.: "Fan va texnologiya", 2017 y. -376 bet.
7. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
8. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.
9. G.Niyozov, M.E. Axmedova. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. - T.: "Noshir" 2011 y. -140 bet.
10. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
11. Raxmonova S.M. "Preparing the graduate students of primary education for innovative professional activity". Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023 y. P 288-293.
12. Raxmonova S.M. "In improving the innovative professional activity of future pedagogues, problem-based learning the most effective method of teaching". Science and technologies. 2023 y. № 3 (1). P 107-112.
13. Raxmonova S.M. "Practical features of preparing primary education students for professional activity" Science and innovation in the education system, 2 (9), 2023 y. P 67-71.